

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI

## BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Biznes va tadbirkorlik oliy**  
**maktabi direktori o‘rinbosari**  
**B.A. Xolbayev** \_\_\_\_\_

2026-yil“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_

### **MAGISTRATURA BITIRUVCHILARI UCHUN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI DASTURI**

<b>Magistratura mutaxassisliklari:</b>	70410901 - Biznesni boshqarish (MBA – moliya, global menejment, raqamli iqtisodiyot, agrobiznes, kichik biznes va tadbirkorlik) 70411202 - Loyiha boshqaruvi (PM)
<b>Ta’lim shakli:</b>	Kunduzgi, sirtqi

**T O S H K E N T – 2026**

## **KELISHILGAN:**

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i Qodirov T.U.

Sifatni ta'minlash va akkreditatsiya bo'limi boshlig'i Alimov A.M.

Registrator ofisi boshlig'i Yo'ldoshev N.N.

## **Dastur uchun mas'ullar:**

D.X.Suyunov - "Biznesni boshqarish va tadbirkorlik" kafedrası mudiri, i.f.d., professor.

A.T.Kenjabayev - "Marketing va raqamli iqtisodiyot" kafedrası mudiri, i.f.d., professor.

D.V.Rasulova - "Moliya va buxgalteriya hisobi" kafedrası mudiri, i.f.d., professor.

T.B.Imomkulov - "Moliya va buxgalteriya hisobi" kafedrası PhD. v.v.b., professor.

## **Taqrizchilar:**

Raximova D.N. - iqtisod fanlari doktori., professor;

Ilxamova Y.S.- iqtisod fanlari nomzodi., professor;

Yakuniy davlat attestatsiyasi dasturi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Bayonnoma № \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2026 yil.

# **MAGISTRATURA BITIRUVCHILARI UCHUN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI DASTURI**

Magistratura bitiruvchilari uchun Yakuniy davlat attestatsiyasi (YaDA) bo'yicha ushbu dastur Moliyaviy menejment, Raqamli moliya, Korporativ boshqaruv, Strategik va operatsion menejment, Raqamli biznesni boshqarish, Elektron hukumat va tijorat, Loyiha boshqaruvi asoslari, Loyihalarni moliyalashtirish, Agrobiznesda resurs ta'minoti fanlarining dolzarb mavzularini birlashtirgan holda, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim standartlari va 2025-2026 yillardagi zamonaviy trendlar asosida ishlab chiqilgan.

Savollar mutaxassislik bo'yicha maxsus fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, malaka talablarida nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malaka darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

Davlat attestatsiyasi imtixonida maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha sinovlar 2 ta nazariy savol va 1 ta muammoli masaladan iborat topshiriqlarni o'z ichiga oladi:

*1-topshiriq.* 1 ta nazariy savol (max – 30 ball);

*2-topshiriq.* 1 ta nazariy savol (max – 30 ball);

*3-topshiriq.* Muammoli masalaning yechimini topish (muammolni aniqlash, tahlil qilish va taklif ishlab chiqish) (max – 40 ball).

Barcha topshiriqlar ushbu dasturda berilgan mavzular doirasida ishlab chiqiladi. Imtixon bileti namunasi ilovada berilgan,

## **1. KIRISH, DASTURNING MAQSADI va VAZIFALARI.**

### **1.1. Kirish**

Zamonaviy globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida yuqori malakali boshqaruv kadrlarini tayyorlash strategik ahamiyatga ega. Ushbu dastur magistr darajasini oluvchi tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini, biznes boshqaruvi, moliya boshqarish, raqamli texnologiyalar va loyiha boshqaruvida strategik qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini kompleks baholash uchun xizmat qiladi.

## **1.2. Dasturning maqsadi**

Bitiruvchilarning biznes boshqaruvi, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy menejment, raqamli moliya va loyiha boshqaruvidagi nazariy bilimlarini hamda amaliy ko'nikmalarini tizimli ravishda sinovdan o'tkazish.

## **1.3. Dasturning vazifalari**

Magistrlarning boshqaruv nazariyalarini amaliyotga tatbiq eta olish darajasini aniqlash;

korporativ nizolar va agentlik muammolarini hal qilish qobiliyatini baholash;

raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes modellarini transformatsiya qilish ko'nikmalarini tekshirish;

magistrlarning moliyaviy menejment nazariyalarini amaliyotga tatbiq eta olish darajasini aniqlash;

raqamli moliyadagi muammolarini hal qilish qobiliyatini baholash;

fintech, sun'iy intellekt va ma'lumotlarga asoslanganligi bilish;

an'anaviy bank xizmatlarini onlayn formatga o'tkazish, Mobile banking, internet banking, digital wallets joriy qilishni oshirish;

magistrlarning loyiha boshqaruvi asoslarini nazariyalarini amaliyotga tatbiq eta olish darajasini aniqlash;

loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolarini hal qilish qobiliyatini baholash;

raqamli iqtisodiyot sharoitida loyiha boshqaruvida risklarni aniqlash;

loyihalarni moliyalashtirish manbalarini aniqlash va loyihalarni loyihaning hayotiy siklini amalga oshirish.

## **2. ASOSIY QISM: FANLARNING DOLZARB MAVZULARI**

### **2.1. MOLIYAVIY MENEJMENT**

Moliyaviy menejmentning tashkiliy, konseptual va institutsional asoslari

Moliyaviy menejmentning maqsadlari, vazifalari va funksiyalari.

Moliyaviy menejmentni tashkil etish asoslari.

Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish mazmuni va asoslari

Korxonalarda pul oqimlari harakatini boshqarish

Korxonalarda kapital va aktivlarni boshqarish  
Kompaniyaning debitorlik va kreditorlik qarzlarini boshqarish  
Kompaniyaning daromadlari, xarajatlari, foydasi va rentabelligini boshqarish

Korxonalarda investitsion faoliyatni boshqarish  
Korxonalarda narx shakllanish jarayonini boshqarish  
Moliyaviy risklar va ularni boshqarish  
Davlat maqsadli jamg'armalari daromad va xarajatlarini boshqarish  
Inqirozga qarshi boshqaruvni tashkil etish asoslari

## **2.2. RAQAMLI MOLIYA**

Moliya va Moliyaviy texnologiyalar nazariy asoslari  
Raqamli moliyaning iqtisodiyotga tutgan o'rni  
Raqamli moliyaning o'ziga xos xususiyatlari  
Bank tizimida raqamli texnologiyalar  
Markaziy bank raqamli texnologiyalari  
Davlat, va mahalliy moliya texnologiyalari  
Turli xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun raqamli moliya  
To'lov xizmatlari bozorining to'lov infratuzilmasi  
To'lov bozorida to'lov texnologiyalaridagi innovatsiyalar  
Rivojlangan mamlakatlarda raqamli moliya xizmatlari  
Raqamli moliyada risklar va xavfsizlik  
Investitsiyalar va raqamli aktivlar  
Raqamli moliyaning iqtisodiy samaradorligi  
O'zbekistonda raqamli moliya rivojlanishi  
Moliya va moliyaviy texnologiyalarning nazariy asoslari  
Raqamli moliyaning iqtisodiyotga tutgan o'rni  
Bank tizimida raqamli texnologiyalar  
Markaziy bank raqamli texnologiyalari  
Davlat, va mahalliy moliya texnologiyalari  
Turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun raqamli moliya  
To'lov xizmatlari bozorining to'lov infratuzilmasi  
To'lov bozorida to'lov texnologiyalaridagi innovatsiyalar  
Rivojlangan mamlakatlarda raqamli moliya xizmatlari

## **2.3. KORPORATIV BOSHQARUV**

O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarish, transformasiya va diversifikasiya qilish. Korporativ boshqaruvning mohiyati va asosiy tushunchalari.

Korporativ boshqaruv nazariyalari.

Korporativ boshqaruv modellari: ingliz-amerika, nemis va yapon modellari

O'zbekistonda korporativ boshqaruvning rivojlanishi: shart-sharoitlar, tendensiyalar va istiqbollari.

Korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari.

Korporativ boshqaruv mexanizmlari.

Korporativ boshqaruvda axborot ochiqligi.

Korporativ boshqaruvda institusional investorlar, fond bozorlari va boshqa vositachilarning o'рни.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi oliy boshqaruv organi sifatida.

Korporativ boshqaruv tizimida Kuzatuv kengashining o'рни va roli.

Korporativ boshqaruv tizimida Ijroiya organi.

Kompaniyalarda nazorat organlari faoliyatini tashkil qilish.

Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik kompaniyalarida korporativ boshqaruvning xususiyatlari.

Korporativ strategiya va risklarni boshqarish.

Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash.

Korporativ madaniyat, etika va kompaniyalarning ijtimoiy mas'uliyati.

## **2.4. STRATEGIK VA OPERATSION MENEJMENT**

Tashkilotni boshqarishda strategik menejmentning mohiyati va mazmuni.

Strategik menejmentning asosiy vazifalari.

Strategik boshqaruvdagi yondashuvlar.

Strategiyani ishlab chiqish darajalari (korporativ, biznes, funktsional va operatsion).

M.Porterning beshta raqobat kuchi va ularning korxonalar strategiyasini tanlashga ta'siri. Raqobat ustunliklarini tahlil qilish.

Operatsion menejment haqida umumiy tushuncha.

Operatsion strategiya va samaradorlik.

Mahsulot va xizmatlar innovatsiyasini boshqarish. Ob'ektlarning joylashuvi, rejalashtirish, bashorat qilish va nazorat tizimi.

Tejamkor ishlab chiqarish. 5S modeli.

Jarayonlar texnologiyasi. Jarayonlar hamda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish quvvatini rejalashtirish.

Operatsiyani loyihalash: jarayonni loyihalash, texnologiya va operatsiyadagi odamlar. Operatsiyalarning tuzilishi va ko'lami.

Korxonalar va tashkilotlarda strategik va operatsion jarayonlarni tahlili.

## **2.5. RAQAMLI BIZNESNI BOSHQARISH**

Raqamli biznes boshqaruvi fanining predmeti va vazifalari

Raqamli biznes boshqaruvida innovatsion texnologiyalarni rivojlanish tendensiyalari

Raqamli biznes boshqaruvida raqamli platformalarni o'рни va ahamiyati

Raqamli iqtisodiyoda bir-birini to'ldiruvchi texnologiyalarning o'рни

Raqamli biznes boshqaruvida bulutli hisoblash texnologiyalari

Raqamli biznes boshqaruvida blokcheyn texnologiyalarini o'рни va ahamiyati

Raqamli iqtisodiyoda BigData texnologiyalari va undan samarali foydalanish

Raqamli biznes boshqaruvida IoT Internet-buyumlarning ishlash texnologiyalari va rivojlangan mamlakatlarda uning qo'llanilishi

Raqamli iqtisodiyoda kriptovalyutalarning ishlash texnologiyalari va uning iqtisodiyotdagi ijobiy ahamiyati

Raqamli biznes boshqaruvida 4.0 sanoat (texnologiya industriya 4.0) texnologiyasining mohiyati

Infokommunikatsion texnologiyalar mamlakatning Raqamli biznes boshqaruvida innovatsion rivojlanish omili sifatida

O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli inqilobning boshlanishi "Raqamli O'zbekiston – 2030" milliy strategiyasining konsepsiyasi

Raqamli innovatsion texnologiyalar O'zbekistonda sayyohlik industriyasi rivojlanishining drayveri sifatida

Ta'limda yangi innovatsion raqamli texnologiyalarning o'рни va ahamiyati

## **2.6. ELEKTRON HUKUMAT VA TIJORAT**

Elektron hukumat tushunchasi, vazifa va prinsiplari

"Elektron hukumat" tizimini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari

Elektron hukumatni amalga oshirishning muvaffaqiyat va xavf omillari. Elektron hukumatning modellari

Elektron hukumat tarixi

Elektron tijorat fani predmeti va vazifalari

Tarmoq iqtisodiyotining elektron tijoratdagi tizimli tabiati

Raqamli iqtisodiyot tizimida elektron tijorat va rivojlanish omillari

Elektron tijoratning asosiy modellari va tamoyillari

O'zbekistonda elektron tijoratning me'yoriy-huquqiy bazasi

Elektron tijratda kraudsorsing va kraudfanding platformalari, marketing va elektron tijoratning o'zaro transformatsiyasi

Elektron tijratda dropshipping faoliyati

Elektron tijrat fani predmeti va vazifalari

Tarmoq iqtisodiyotining elektron tijratdagi tizimli tabiati

Raqamli iqtisodiyot tizimida elektron tijrat va rivojlanish omillari

Elektron tijratning asosiy modellari va tamoyillari

O'zbekistonda elektron tijratning me'yoriy-huquqiy bazasi

Elektron tijratda kraudsorsing va kraudfanding platformalari, marketing va elektron tijoratning o'zaro transformatsiyasi

Elektron tijratda dropshipping faoliyati

## **2.7. LOYIHA BOSHQARUVI ASOSLARI**

Loyihaviy fikrlash va loyiha muhiti.

Loyihani boshlash va uni asoslash.

Loyiha integratsiyasi va rejalashtirish mantiqi.

Loyiha hajmini aniqlash va ishlarni dekompozitsiyasi

Xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazorat.

Resurslar va kommunikatsiyalarni boshqarish.

Xaridlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash.

Monitoring, nazorat va loyiha samaradorligi.

Loyiha va operatsion faoliyatni tahlil qilish.

Byudjet, xarajatlar va cost baseline tuzish

Sifat ko'rsatkichlari va nazorat vositalari

Risklarni aniqlash va risk reestri tuzish

## **2.8. LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH**

Loyihaviy moliyalashtirishning mohiyati va zarurligi. Investitsiyalar va ularning turlari.

Loyihaviy moliyalashtirishning turlari va modellari.

Loyihaviy moliyalashtirish nazariy va metodologik asoslari.

Loyihaviy tahlilning bosqichlari.

Investitsiya loyihalarini baholash.

Obligatsiyalar va aksiyalarning investitsion tahlili.

Jarayonlar texnologiyasi. Jarayonlar hamda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish quvvatini rejalashtirish.

Investitsiya loyihalari risklari.

Loyiha tashabbuskori – kompaniyaning likvidliligi va to'lovga qobilligini baholash.

## 2.9. AGROBIZNESDA RESURS TA'MINOTI

“Agrobiznesning(qishloq xo‘jaligi) resurs ta‘minoti” fanining predmeti va vazifalari;

Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish;

Agrobiznes faoliyatining huquqiy asoslari;

Agrobiznesda boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Agrobiznes muhiti va unga ta‘sir etuvchi omillar

Agrobiznesda qulay agrobiznes muhitini yaratish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish;

Agrobiznesda yer resurslaridan foydalanishni tashkil etish va boshqarish

Agrobiznesda suv resurslaridan foydalanishni tashkil etish va boshqarish

Agrobiznesda ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish va boshqarish

Agrobiznesda mehnat resurslari va undan samarali foydalanishni tashkil etish

Agrobiznesda axborot maslahat markazlarining roli

Agrobiznesda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash

## 3. MUAMMOLI MASALALAR

### 3.1. MOLIYAVIY MENEJMENT

**Muammoli masala:** Kompaniya foydasi o‘smoqda, lekin likvidlik muammosi bor. Bu holatda moliyaviy menejmentning qaysi funksiyasi muhim va nega?

**Muammoli masala:** Korxonada yuqori daromad olyapti, lekin bozor qiymati past. Moliyaviy menejment nuqtai nazaridan bu muammoni qanday tushuntirish mumkin?

**Muammoli masala:** Korxonada moliyaviy qarorlar turli bo‘limlar tomonidan alohida qabul qilinmoqda. Bu qanday muammolarga olib keladi va qanday yechim taklif etasiz?

**Muammoli masala:** Kompaniyada CFO (Chief Financial Officer) lavozimi yo‘q. Bu holat moliyaviy boshqaruvga qanday ta‘sir qiladi?

**Muammoli masala:** Kompaniya yillik byudjet tuzdi, lekin real natijalar rejadan keskin farq qildi. Bu holatda qaysi xatolar bo‘lishi mumkin?

**Muammoli masala:** Startapda moliyaviy rejalashtirish umuman amalga oshirilmagan. Bu qanday risklarni keltirib chiqaradi?

**Muammoli masala:** Davlat byudjeti defisiti ortib bormoqda. Qaysi moliyaviy instrumentlar orqali bu holatni bartaraf etish mumkin?

**Muammoli masala:** Davlat xarajatlari samaradorligi past. Buni qanday baholash va yaxshilash mumkin?

**Muammoli masala:** Kompaniya foydada ishlayapti, lekin pul yetishmovchiligi bor. Bu qanday holat va uni qanday tushuntirish mumkin?

**Muammoli masala:** Korxonada debitorlik qarzlari katta, pul oqimi salbiy. Buni barqarorlashtirish uchun qanday choralar ko'riladi?

**Muammoli masala:** Kompaniya qarz hissasini oshirib, yangi loyihaga kirdi. Bu qaror kapital strukturasi nuqtai nazaridan qanday baholanadi?

**Muammoli masala:** Aktivlardan foydalanish samaradorligi past. Qaysi ko'rsatkichlar orqali buni tahlil qilish mumkin?

**Muammoli masala:** Kompaniya debitorlarga uzoq muddatli to'lov muddati bermoqda. Bu qanday risklarni keltirib chiqaradi?

**Muammoli masala:** Korxonada kreditorlarga o'z vaqtida to'lov qila olmayapti. Bu holatning moliyaviy oqibatlarini qanday?

**Muammoli masala:** Daromad o'smoqda, lekin foyda kamaymoqda. Bu holat qanday sabablar bilan izohlanadi?

**Muammoli masala:** Kompaniya xarajatlarni keskin qisqartirdi. Bu uzoq muddatda qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin?

**Muammoli masala:** Loyihaning NPV manfiy, lekin strategik ahamiyati yuqori. Bu holatda investisiya qilish to'g'rimi?

**Muammoli masala:** Kompaniya yuqori riskli, lekin yuqori daromadli loyihani tanladi. Bu qaror qanday baholanadi?

**Muammoli masala:** Ikkita loyiha bor: biri tez qaytariladi, ikkinchisi yuqori foyda beradi. Qaysi birini tanlash maqsadga muvofiq?

**Muammoli masala:** Kompaniya mahsulot narxini pastaytirdi, lekin foyda oshmadi. Bu qanday iqtisodiy holatni ko'rsatadi?

**Muammoli masala:** Bozorda kuchli raqobat paydo bo'ldi. Kompaniya qanday narx strategiyasini qo'llashi kerak?

**Muammoli masala:** Kompaniya valyuta kursining o'zgarishi tufayli zarar ko'rdi. Bu riskni qanday boshqarish mumkin?

**Muammoli masala:** Kompaniya kredit risklarini hisobga olmagan. Bu qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

**Muammoli masala:** Loyihada noaniqlik yuqori. Riskni baholash uchun qaysi usullar qo'llaniladi?

**Muammoli masala:** Pensiya jamg'armasida mablag' yetishmovchiligi yuzaga keldi. Bu holatni qanday barqarorlashtirish mumkin?

**Muammoli masala:** Jamg'arma mablag'lari samarasiz ishlatilmoqda. Samaradorlikni qanday oshirish mumkin?

**Muammoli masala:** Kompaniya bankrotlik yoqasiga kelib qoldi. Qaysi antikrizis choralar ko'rilishi kerak?

**Muammoli masala:** Korxonada likvidlik inqiroziga uchradi. Qisqa muddatli yechimlar qanday bo'lishi mumkin?

**Muammoli masala:** Kompaniyada daromad keskin tushib ketdi. Qaysi strategik qarorlar qabul qilinishi kerak?

**Muammoli masala:** Iqtisodiy inqiroz paytida kompaniya investisiyalarni to'xtatdi. Bu qaror to'g'rimi yoki yo'q? Nega?

### **3.2. KORPORATIV BOSHQARUV**

**Muammoli masala: "Raqamli transformatsiya va korporativ boshqaruv samaradorligi"** AJda so'nggi ikki yilda raqamli texnologiyalar joriy etildi, ammo direktorlar kengashi qarorlari sekin qabul qilinmoqda. Kompaniyada axborot shaffofligi past, ichki nazorat tizimi yetarlicha rivojlanmagan. Aksiyadorlar foyda pasayganidan norozi. Menejment esa bu holatni tashqi bozor sharoitlari bilan izohlamogda. Savol: korporativ boshqaruv tamoyillari asosida kompaniyada qanday o'zgarishlar kiritish zarur?

**Muammoli masala: "Axborot oshkoraligi muammosi"** AJda moliyaviy hisobotlar o'z vaqtida e'lon qilinmaydi. Aksiyadorlar kompaniya faoliyati haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Bu esa ishonch pasayishiga olib kelmoqda. Kuzatuv kengashi bu masalaga yetarlicha e'tibor qaratmayapti. Savol: axborot oshkoraligini ta'minlash uchun qanday mexanizmlar joriy etish kerak?

**Muammoli masala: "Manfaatlar to'qnashuvi"** AJda direktor o'z qarindoshiga tegishli kompaniya bilan shartnoma tuzgan. Bu qaror aksiyadorlar bilan kelishilmagan. Natijada xarajatlar oshgan. Aksiyadorlar bu holatdan norozi. Savol: manfaatlar to'qnashuvini oldini olish uchun qanday korporativ siyosat kerak?

**Muammoli masala: "Direktorlar kengashi samaradorligi"** AJda direktorlar kengashi faqat formal yig'ilishlar o'tkazadi. Strategik qarorlar qabul qilinmaydi. Kompaniya rivojlanishi sekinlashgan. Savol: direktorlar kengashi faoliyatini qanday samarali tashkil etish mumkin?

**Muammoli masala: “Ichki nazorat tizimi zaifligi”** AJda moliyaviy xatolar ko‘paygan. Audit tizimi samarasiz ishlamoqda. Bu kompaniya obro‘sga salbiy ta‘sir qilmoqda. Savol: ichki nazorat va audit tizimini qanday takomillashtirish mumkin?

**Muammoli masala: “Aksiyadorlar huquqlarining buzilishi”** AJda kichik aksiyadorlar qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Ularning ovozi inobatga olinmaydi. Bu korporativ ziddiyatlarga sabab bo‘lmoqda. Savol: aksiyadorlar huquqlarini qanday himoya qilish mumkin?

**Muammoli masala: “Strategik rejalashtirish muammosi”** AJda uzoq muddatli strategiya mavjud emas. Qarorlar qisqa muddatli foydaga qaratilgan. Bu barqaror rivojlanishga to‘sqinlik qilmoqda. Savol: strategik boshqaruvni qanday yo‘lga qo‘yish kerak?

**Muammoli masala: “Menejmentning javobgarligi”** AJda rahbariyat qabul qilgan noto‘g‘ri qarorlar kompaniya zarariga olib kelgan. Ammo javobgarlik aniq belgilanmagan. Savol: menejment mas‘uliyatini qanday kuchaytirish mumkin?

**Muammoli masala: “Korporativ madaniyat muammosi”** AJda xodimlar o‘rtasida ishonch past. Jamoada konfliktlar ko‘paygan. Bu samaradorlikka ta‘sir qilmoqda. Savol: korporativ madaniyatni qanday shakllantirish kerak?

**Muammoli masala: “Raqamli boshqaruv etikasining yetishmasligi”** AJda raqamli tizimlar joriy etilmagan. Qarorlar qo‘lda qabul qilinadi. Bu samaradorlikni pasaytirmoqda. Savol: raqamli korporativ boshqaruvni qanday joriy etish mumkin?

**Muammoli masala: “Audit mustaqilligi”** AJda tashqi audit kompaniyasi menejmentga bog‘liq. Bu natijalar xolisligiga shubha tug‘diradi. Savol: audit mustaqilligini qanday ta‘minlash mumkin?

**Muammoli masala: “Risklarni boshqarish masalasi”** AJda risklarni baholash tizimi yo‘q. Natijada kompaniya katta moliyaviy yo‘qotishlarga uchragan. Savol: risk-menejment tizimini qanday tashkil etish kerak?

**Muammoli masala: “Kuzatuv kengashining roli”** AJda kuzatuv kengashi faqat nomiga mavjud. Nazorat funksiyasi amalga oshirilmaydi. Savol: kuzatuv kengashi rolini qanday kuchaytirish mumkin?

**Muammoli masala: “Dividend siyosati muammosi”** AJda dividendlar noteng taqsimlanmoqda. Bu aksiyadorlar o‘rtasida nizolarga sabab bo‘lmoqda. Savol: adolatli dividend siyosatini qanday ishlab chiqish mumkin?

**Muammoli masala: “Innovatsiyalarni joriy etish”** AJda innovatsion loyihalarga e’tibor kam. Kompaniya raqobatda ortda qolmoqda. Savol: innovatsiyalarni korporativ boshqaruvga qanday integratsiya qilish mumkin?

**Muammoli masala: “Hisobdorlik muammosi”** AJda menejment o‘z faoliyati bo‘yicha hisob bermaydi. Bu shaffoflikni pasaytiradi. Savol: hisobdorlik tizimini qanday kuchaytirish mumkin?

**Muammoli masala: “Korporativ etikaning buzilishi”** AJda xodimlar tomonidan etika qoidalari buzilmoqda. Bu kompaniya imijiga ta’sir qilmoqda. Savol: korporativ etikani qanday ta’minlash mumkin?

**Muammoli masala: “Investorlar ishonchi”** AJda investorlar soni kamaygan. Sababi – korporativ boshqaruv past darajada. Savol: investorlar ishonchini qanday oshirish mumkin?

**Muammoli masala: “Liderlik muammosi”** AJda rahbarlik uslubi avtoritar. Xodimlar tashabbusi cheklangan. Savol: samarali liderlikni qanday shakllantirish mumkin?

**Muammoli masala: “Barqaror rivojlanish”** AJda ESG tamoyillari hisobga olinmaydi. Bu xalqaro bozorga chiqishni cheklamoqda. Savol: barqaror korporativ boshqaruvni qanday joriy etish mumkin?

**Muammoli masala: “Agentlik ziddiyati”** Direktor kompaniya foydasini dividend sifatida tarqatish o‘rniga, o‘zining shaxsiy tanish boshqaruvidagi startapga yo‘naltirdi.

Vazifa: Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmini taklif qiling.

**Muammoli masala: “Mustaqil direktor”** Kuzatuv kengashida faqat asosiy aksiyadorning qarindoshlari qoldi. Vazifa: Mustaqil direktorlarning korporativ boshqaruvdagi rolini asoslab bering.

**Muammoli masala: “Insayderlik axboroti”** Boshqaruv a’zosi kompaniyaning yirik shartnomasi haqidagi xabar chiqishidan oldin o‘z aksiyalarini sotdi.

Vazifa: Ushbu holatning yetik va huquqiy oqibatlarini tahlil qiling.

**Muammoli masala: “ESG transformasiyasi”** Xorijiy investor kompaniyadan yekologik hisobot (ESG) talab qilmoqda, aks holda investitsiyani to‘xtatadi.

Vazifa: Kompaniya uchun ESG strategiyasi bosqichlarini ishlab chiqing.

**Muammoli masala: “Manfaatlar to‘qnashuvi”** Ta’minot bo‘limi boshlig‘i xomashyoni o‘z firmasi orqali qimmatga sotib olmoqda.

Vazifa: Ichki audit va komplayens nazorati tizimini loyihalang.

**Muammoli masala: “Davlat aktivlari”** Davlat boshqaruvi samarasiz. Vazifa: Kompaniya bo‘yicha korporativ yo‘l xaritasini tuzing va xususiylashtirishga tayyorlang.

**Muammoli masala: “Shaffoflik inqirozi”** Kompaniya moliyaviy yo‘qotishlarni yashirish uchun hisobotni soxtalashtirdi. Vazifa: Reputatsiyani tiklash choralarini belgilang va tashqi auditning rolini ko‘rsatib bering.

**Muammoli masala: “Minoritar aksiyadorlar”** Yirik aksiyador kompaniyani qayta tashkil yetish orqali kichik aksiyadorlarni siqib chiqarmoqda. Vazifa: Kumulyativ ovoz berish tizimining ahamiyatini tushuntiring.

**Muammoli masala: “Executive Compensation”** Top-menejerlarning maoshi yuqori, lekin kompaniya zarar ko‘rmoqda. Vazifa: Boshqaruvni rag‘batlantirish uchun KPI tizimini ishlab chiqing.

**Muammoli masala: “Transchegaraviy boshqaruv”** O‘zbekiston kompaniyasi xorijda sho‘ba korxonasi ochdi. Vazifa: Sho‘ba korxonasi ustidan korporativ nazorat o‘rnatish usullarini ko‘rsating.

### **3.3. RAQAMLI BIZNES BOSHQARISH, ELEKTRON HUKUMAT VA TIJORAT**

**Muammoli masala:** Kompaniya an’anaviy savdo bilan shug‘ullanadi, lekin onlayn savdoga o‘tishi bilan mijozlar soni kamaydi. Muammoning sabablari nima va qanday strategiya qo‘llash kerak? Kompaniya qanday qilib onlayn savdoda mijozlar sonini oshirishi kerak bo‘ladi?

**Muammoli masala:** Korxonasi ERP tizimini joriy qildi, lekin xodimlar undan foydalanishni xohlamaydi. Kompaniya **Change management (o‘zgarishlarni boshqarish)** ni qanday tashkil qilish kerak? Uni tashkil qilish orqali qanday yutuqlarga erishish mumkin?

**Muammoli masala:** Kompaniya raqamli transformasiyaga katta investisiya qildi, lekin kutilgan natijani bermadi. Nima deb o‘ylaysiz? Kompaniyada KPI va baholash tizimi qanday bo‘lishi kerak?

**Muammoli masala:** An’anaviy bank raqamli bankka aylanmoqchi. Qaysi bosqichlar orqali transformasiya amalga oshiriladi va qanday natijalarga olib keladi?

**Muammoli masala:** Ishlab chiqarish kompaniyasi IoT (internet buyumlari) texnologiyasini joriy qilmoqchi. Qanday foyda va xatarlar mavjud?

**Muammoli masala:** Startap o'z mahsulotini bepul taqdim etmoqda, daromad esa reklama orqali. Bu qaysi biznes model va uning afzalliklari qanday?

**Muammoli masala:** Kompaniya oylik obuna orqali xizmat ko'rsatmoqda, lekin mijozlar tez ketmoqda. **Retentionni** qanday oshirish mumkin?

**Muammoli masala:** Marketplace platformasi sotuvchilarni jalb qila olmayapti. Network effectni qanday kuchaytirish mumkin?

**Muammoli masala:** Kompaniya dropshipping modelini joriy qildi, lekin logistikada muammolar bor. Muammoni qanday hal qilish mumkin?

**Muammoli masala:** On-demand xizmatlar platformasi raqobatda yutqazmoqda. Qanday raqobat strategiyasini tanlash kerak?

**Muammoli masala:** Kompaniya ijtimoiy tarmoqlarda reklama qiladi, lekin konversiya past. Sabablar va echimlar nima?

**Muammoli masala:** E-commerce saytida ko'p tashrif bor, lekin sotuv kam. Uni (UX/UI) qanday yaxshilash mumkin?

**Muammoli masala:** CRM tizimi bor, lekin mijozlar haqida ma'lumotlardan foydalanilmayapti. Data-driven marketingni qanday joriy qilish mumkin?

**Muammoli masala:** Kompaniya omnikanal strategiyani joriy qildi, lekin kanallar integrasiyasi yo'q. Muammoni qanday hal qilish mumkin?

**Muammoli masala:** Mijozlar kompaniyadan norozi va salbiy fikrlar ko'paygan. Reputation managementni qanday olib borish kerak?

**Muammoli masala:** Kompaniyada kiberhujum bo'ldi va ma'lumotlar yo'qoldi. Qanday choralar ko'rish kerak?

**Muammoli masala:** Biznes cloud tizimga o'tmoqchi, lekin xavfsizlikdan xavotirda. Qanday qaror qabul qilish kerak?

**Muammoli masala:** Chatbot joriy qilindi, lekin mijozlar undan norozi. Chatbotni qanday takomillashtirish mumkin?

**Muammoli masala:** Kompaniyada katta hajmda ma'lumot bor, lekin tahlil qilinmaydi. BI va analyticsni qanday joriy qilish mumkin?

**Muammoli masala:** Fintex startap raqobatda orqada qolmoqda. Qanday innovasion echimlar taklif qilish mumkin?

**Muammoli masala:** Kompaniya mobil ilovasini ishlab chiqdi, lekin yuklab olishlar soni kam. Sabablar nima bo'lishi mumkin? App marketing strategiyasini qanday tuzish kerak?

**Muammoli masala:** Kompaniya SEOga mablag' sarflayapti, lekin sayt Google qidiruvida yuqori chiqmayapti. Muammoning asosiy sabablari nima? SEOni yaxshilash uchun qanday choralar ko'rish kerak?

**Muammoli masala:** Kompaniya influencer marketingdan foydalanmoqda, lekin natija past. Nima uchun bunday bo'lishi mumkin? To'g'ri inflyuenser tanlash strategiyasi qanday bo'lishi kerak?

**Muammoli masala:** Kompaniyada raqamli transformasiya jarayonida xodimlar qarshilik ko'rsatmoqda. Bu holatning sabablari nima? Change management strategiyasini qanday kuchaytirish mumkin?

**Muammoli masala:** E-commerce kompaniyada qaytarishlar (returns) soni juda yuqori. Sabablar nima bo'lishi mumkin? Bu muammoni kamaytirish uchun qanday choralar ko'rish kerak?

**Muammoli masala:** Kompaniya sun'iy intellekt asosida tavsiya tizimini joriy qildi, lekin mijozlar undan foydalanmayapti. Muammo qaerda bo'lishi mumkin? Recommendation systemni qanday takomillashtirish kerak?

**Muammoli masala:** Kompaniya Big Data yig'moqda, lekin undan biznes qarorlarida foydalanilmayapti. Buning sabablari nima? Data-driven managementni qanday joriy qilish mumkin?

**Muammoli masala:** Kompaniya onlayn to'lov tizimini joriy qildi, lekin mijozlar undan foydalanishga ishonmayapti. Ishonch muammosining sabablari nima? Qanday qilib ishonchni oshirish mumkin?

**Muammoli masala:** Kompaniya raqamli mahsulot (onlayn kurs) sotmoqda, lekin sotuv past. Sabablar nima bo'lishi mumkin? Qanday marketing va kontent strategiyasini qo'llash kerak?

### 3.4. LOYIHA BOSHQARUVI

**Muammoli masala:** Investor o'z balansidagi riskni kamaytirish uchun SPV tuzdi. **Savol:** Agar loyiha inqirozga uchrasa, kreditorlar investorning asosiy kompaniyasi aktivlariga da'vo qila oladimi? Nega?

**Muammoli masala:** Loyihaviy kompaniyada ulushlar 30/70 (o'z mablag'i/qarz) nisbatda. **Savol:** Nega banklar qarz ulushi haddan tashqari yuqori bo'lishiga qarshilik qiladi?

**Muammoli masala:** Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihasida SPV tuzilgan. **Savol:** Loyiha muddati tugagach, SPV aktivlari kimning tasarrufiga o'tishi kerak?

**Muammoli masala:** Loyiha ishtirokchilari o'rtasida "Inter-creditor Agreement" imzolanmoqda. **Savol:** Ushbu hujjat turli darajadagi kreditorlar o'rtasidagi to'lov navbatini qanday tartibga soladi?

**Muammoli masala:** Kompaniya yangi zavod uchun "Off-balance sheet" moliyalashtirishni tanladi. **Savol:** Bu usul kompaniyaning kredit reytingiga qanday ta'sir qiladi?

**Muammoli masala:** Qurilish davrida xomashyo narxi 40% ga oshdi. **Savol:** "Fixed Price" shartnomasi bo'lmaganda, bu riskni kim o'z zimmasiga oladi?

**Muammoli masala:** Loyiha uchun olingan kredit valyutasi dollarda, daromad esa mahalliy valyutada. **Savol:** Devalvasiya yuz berganda "Currency mismatch" muammosini qanday hal qilish mumkin?

**Muammoli masala:** Pudratchi ob'ektni muddatidan kechiktirib topshirdi. **Savol:** "Liquidated Damages" (jarimalar) miqdori kreditorlarning yo'qotilgan foydasini qoplay oladimi?

**Muammoli masala:** Mahsulotni sotib olish bo'yicha "Take-or-Pay" shartnomasi imzolangan. **Savol:** Xaridor mahsulotni olmasa ham to'lov qilishi shartmi? Bu kreditor uchun qanday kafolat beradi?

**Muammoli masala:** Loyiha amalga oshirilayotgan davlatda soliq qonunchiligi o'zgardi. **Savol:** "Change in Law" riskini shartnomada kimning zimmasiga yuklash adolatli hisoblanadi?

**Muammoli masala:** Loyihaning NPV ko'rsatkichi musbat, lekin dastlabki 3 yilda Cash Flow manfiy. **Savol:** Bu holatda loyihaning likvidligini qanday ta'minlash mumkin?

**Muammoli masala:** Loyihaning DSCR (Qarz qoplanish koeffisienti) 1.0 ga teng. **Savol:** Bank uchun bu ko'rsatkich xavflimi? Minimal talab odatda qancha bo'lishi kerak?

**Muammoli masala:** Inflyasiya darajasi kutilganidan 10% yuqori bo'ldi. **Savol:** Bu loyihaning diskontlash stavkasiga (WACC) qanday ta'sir qiladi?

**Muammoli masala:** Loyihaning IRR ko'rsatkichi 15%, kapital qiymati esa 18%. **Savol:** Investor ushbu loyihaga pul tikishi mantiqiyimi? Sababini tushuntiring.

**Muammoli masala:** Loyihaning "Payback Period" (qoplanish muddati) 12 yil, lekin kredit 7 yilga berilgan. **Savol:** Bu erda qanday moliyaviy nomutanosiblik bor va uni qanday tuzatish mumkin?

**Muammoli masala:** "Step-in Rights" huquqi bo'yicha bank loyiha boshqaruvini qo'lga oldi. **Savol:** Qaysi holatlarda bank bu huquqdan foydalanishga majbur bo'ladi?

**Muammoli masala:** Loyihada "Completion Guarantee" (bitkazish kafolati) berilgan. **Savol:** Agar qurilish to'xtab qolsa, kafolat beruvchi loyihani yakunlashi shartmi yoki faqat pulni qaytaradimi?

**Muammoli masala:** "Escrow account" tizimi joriy etilgan. **Savol:** Loyihadan tushgan tushumlar birinchi navbatda nimaga (soliq, kredit yoki dividend) yo'naltirilishi kerak?

**Muammoli masala:** Konsessiya shartnomasi doirasida davlat "Minimum Revenue Guarantee" berdi. **Savol:** Agar tushum rejadan past bo'lsa, byudjetga qanday yuklama tushadi?

**Muammoli masala:** "Force Majeure" holati yuz berdi (masalan, pandemiya). **Savol:** Bu davrda kredit foizlarini hisoblash to'xtatilishi kerakmi?

**Muammoli masala:** Quyosh elektr stansiyasi loyihasida bulutli kunlar ko'payib ketdi. **Savol:** Texnik riskni kamaytirish uchun qanday sug'urta turidan foydalanish lozim?

**Muammoli masala:** Pullik yo'l loyihasida muqobil bepul yo'l ta'mirlandi va trafik kamaydi. **Savol:** Bu "Raqobat riski" shartnomada qanday aks ettirilishi kerak edi?

**Muammoli masala:** Neft qazib olish loyihasida narxlar keskin tushib ketdi. **Savol:** "Break-even point" (zararsizlik nuqtasi) o'zgarishi loyiha to'xtashiga sabab bo'ladimi?

**Muammoli masala:** Chiqindini qayta ishlash zavodida xomashyo (chiqindi) etishmayapti. **Savol:** Mahalliy hokimiyat bilan imzolangan "Put-or-Pay" shartnomasi bu erda qanday ishlaydi?

**Muammoli masala:** Aeroport terminali qurilishida yo'lovchi oqimi noto'g'ri prognoz qilingan. **Savol:** Moliyaviy modelni qayta ko'rib chiqishda qaysi o'zgaruvchi asosiy rol o'ynaydi?

**Muammoli masala:** Loyiha uchun "Mezzanine debt" (mezonin qarz) jalb qilindi. **Savol:** Nima uchun bu qarz oddiy kreditdan qimmatroq, lekin o'z kapitalidan arzonroq hisoblanadi?

**Muammoli masala:** Sindikatlashgan kreditda etakchi bank (Mandated Lead Arranger) vazifasi nimadan iborat? **Savol:** U qolgan banklar oldida loyiha riski uchun javobgarmi?

**Muammoli masala:** Eksport-kredit agentligi (ECA) kafolat berdi. **Savol:** Bu kafolat kreditning foiz stavkasi pasayishiga qanday ta'sir qiladi?

**Muammoli masala:** Loyiha "Green Bond" (yashil obligasiyalar) orqali moliyalashtirilmoqda. **Savol:** Mablag'lar boshqa maqsadga ishlatilsa, investorlar qanday chora ko'rishini mumkin?

**Muammoli masala:** Loyiha yakunida "Refinancing" (qayta moliyalashtirish) rejalashtirilgan. **Savol:** Qurilish tugagach, risklar kamayishi kredit shartlarini qanday yaxshilaydi?

### 3.5. AGROBIZNESDA RESURS TA'MINOTI

**Muammoli masala:** Suv resurslari muammosi.

Fermer xo'jaligida suv yetishmovchiligi tufayli hosildorlik pasaymoqda. Qanday texnologiyalar orqali muammoni hal qilish mumkin?

**Muammoli masala:** Texnika yetishmovchiligi.

Xo'jalikda zamonaviy texnika yetarli emas, natijada ishlar kechikmoqda. Texnika ta'minotini qanday yaxshilash mumkin?

**Muammoli masala:** Moliyaviy resurslar tanqisligi.

Fermer yangi loyiha boshlamoqchi, lekin mablag' yetarli emas. Moliyalashtirish manbalari qaysilar? Investitsiya jalb qilish usullarini taklif qiling.

**Muammoli masala:** Mehnat unumdorligi pastligi.

Xodimlar samaradorligi past, hosil kam. Muammoning sabablari nimada? Qanday rag'batlantirish tizimini joriy qilish mumkin?

**Muammoli masala:** Logistika muammosi.

Mahsulot bozorga yetkazishda kechikishlar mavjud. Logistika zanjirini qanday optimallashtirish mumkin? Transport xarajatlarini kamaytirish yo'llari qanday?

**Muammoli masala:** Raqamli texnologiyalarni joriy etish.

Fermer xo'jaligi raqamli tizimlardan foydalanmaydi. Qanday raqamli yechimlarni joriy etish mumkin? Bu qanday natija beradi?

**Muammoli masala:** O'g'itlardan noto'g'ri foydalanish.

Hosildorlik kamayib bormoqda, sabab – noto'g'ri agrotexnika. Muammoni aniqlang. Qanday choralar ko'rish kerak?

**Muammoli masala:** Bozor topish muammosi.

Fermer mahsulot ishlab chiqarmoqda, lekin sotish qiyin. Yangi bozorlarni qanday topish mumkin? Marketing strategiyasi ishlab chiqing.

**Muammoli masala:** Energiya xarajatlari yuqoriligi.

Xo'jalikda elektr va yoqilg'i xarajatlari juda yuqori. Energiya tejamkor texnologiyalar qanday? Qayta tiklanuvchi energiya imkoniyatlari.

**Muammoli masala:** Risklarni boshqarish.

Qurg'oqchilik sabab hosil kamaydi. Risklarni qanday boshqarish mumkin? Sug'urta tizimi qanday yordam beradi?

**Muammoli masala:** Klaster tizimiga o'tish.

Fermer klaster tizimiga qo'shilish haqida o'ylamoqda. Klaster afzalliklari nimada? Kamchiliklari bormi?

**Muammoli masala:** Innovatsion loyiha.

Fermer issiqxona qurmoqchi. Loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholang. Qanday resurslar kerak bo'ladi?

**Muammoli masala:** Axborot yetishmovchiligi.

Fermer bozor narxlari haqida aniq ma'lumotga ega emas. Axborot tizimlarini qanday joriy qilish mumkin? Qaror qabul qilishga qanday ta'sir qiladi?

**Muammoli masala:** Eksport imkoniyati.

Mahsulotni eksport qilish imkoniyati mavjud. Qanday talablar bajarilishi kerak? Logistika va sertifikatlash masalalari.

**Muammoli masala:** Resurslardan samarasiz foydalanish.

Xo'jalikda resurslar noto'g'ri taqsimlangan. Qanday optimallashtirish choralarini taklif qilasiz? Samaradorlikni oshirish usullari.

**Muammoli masala:** Yer unumdorligining pasayishi.

Fermer xo'jaligida yer unumdorligi yil sayin kamayib bormoqda. Muammoning asosiy sabablari nimada bo'lishi mumkin? Tuproq unumdorligini tiklash uchun qanday agrotexnik choralar ko'riladi?

**Muammoli masala:** Raqobatning kuchayishi.

Hududda yangi fermerlar paydo bo'lib, raqobat kuchaymoqda. Raqobat ustunligini qanday oshirish mumkin? Differensiallash strategiyasini taklif qiling

**Muammoli masala:** Kreditdan noto'g'ri foydalanish.

Fermer kredit oldi, lekin mablag' noto'g'ri yo'naltirildi va zarar ko'rildi. Qanday xatolar yo'l qo'yilgan? Moliyaviy boshqaruvni qanday yaxshilash mumkin?

**Muammoli masala:** Ombor yetishmovchiligi.

Hosil yig'ib olingandan so'ng uni saqlash uchun yetarli ombor yo'q. Qanday logistika va saqlash yechimlarini taklif qilasiz? Sovutish omborlarining ahamiyati nimada?

**Muammoli masala:** Raqamli savdoga o'tish.

Fermer mahsulotlarini online sotishni rejalashtirmoqda. Qaysi raqamli platformalardan foydalanish mumkin? Bu jarayonda qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin?

### **3.6. STRATEGIK VA OPERATSION MENEJMENT**

**Muammoli masala "Moviy ummon":** Bozorda raqobat o'ta kuchli, narxlar tushib ketgan. Vazifa: Yangi qiymat yaratish (Value Innovation) strategiyasini taklif qiling.

**Muammoli masala "Lean Production":** Zavodda yaroqsiz mahsulot hajmi 15% ga yetdi. Vazifa: "Kaydzen" va "6 Sigma" usullarini qo'llab, isroflarni kamaytiring.

**Muammoli masala "Ta'minot zanjiri":** Global logistika inqirozi tufayli butlovchi qismlar kechikmoqda. Vazifa: "Just-in-Time" tizimidan "Just-in-Case" tizimiga o'tish samaradorligini baholang.

**Muammoli masala "Diversifikatsiya":** Qurilish kompaniyasi oziq-ovqat sohasiga kirmoqchi. Vazifa: Ansoff matritsasi yordamida risklarni tahlil qiling.

**Muammoli masala "Outsourcing":** Kompaniya o'z logistika bo'limini yopib, xizmatni tashqaridan sotib olmoqchi. Vazifa: "Make or Buy" tahlilini o'tkazing.

**Muammoli masala "Agile transformatsiya":** An'anaviy bank tezkor fintex kompaniyalariga yutqazmoqda. Vazifa: Bankda Agile loyiha boshqaruvini joriy etish rejasini tuzing.

**Muammoli masala "Porterning 5 kuchi":** Bozorga yangi kuchli raqobatchi kirdi. Vazifa: Kompaniyaning raqobat ustunligini himoya qilish strategiyasini ishlab chiqing.

**Muammoli masala "Biznes jarayonlar reinjiningi":** Mijozlarga xizmat ko'rsatish vaqti juda uzun. Vazifa: Jarayonlarni xaritalash (Process Mapping) orqali bosqichlarni qisqartiring.

**Muammoli masala "Kritik yo'l (CPM)":** Yangi mahsulotni ishlab chiqarish muddati 6 oyga kechikmoqda. Vazifa: Loyiha muddatini siqish (Crashing) usullarini qo'llang.

**Muammoli masala "Tashkiliy madaniyat":** Yangi strategiya xodimlar tomonidan qarshilikka uchramoqda. Vazifa: Kurt Levinning "O'zgarishlar modeli" asosida yechim bering.

#### **Muammoli masala: "Strategiya" atamasiga ta'rif**

Vaziyat: "Texnopark Uz" IT kompaniyasi yangi bozorga chiqmoqchi. Rahbariyat har xil qarorlar qabul qilmoqda — kimdir qisqa muddatli foydaga, kimdir uzoq muddatli rivojlanishga e'tibor qaratmoqda. Natijada kompaniya resurslari to'g'ri taqsimlanmayapti.

Topshiriq: "Strategiya" atamasiga ta'rif bering. Kompaniya uchun strategiya nima berishi mumkinligini tushuntiring va mazkur kompaniya holatida strategiyaning yo'qligi qanday oqibatlarga olib kelishini tahlil qiling.

**Muammoli masala:** Vaziyat: "Hamkor Bank" o'z faoliyatini kengaytirmoqchi. Rahbariyat qaysi yo'nalishda rivojlanishni tanlamoqchi: raqamli banking, yangi filiallar ochish yoki mikroreditlashni kuchaytirish. Har bir yo'nalish uchun turlicha yondashuv talab etilmoqda.

Topshiriq: Strategiya turlarini sanab bering. Bank uchun mos strategiya turini tanlang va o'z tanlovingizni asoslang.

### **Muammoli masala: Taktika va strategiya farqi**

Vaziyat: "Fresh Market" oziq-ovqat tarmog'i raqobatchilariga qarshi kurashish uchun narxlarni keskin tushirdi va aksiyalar o'tkazdi. Biroq 6 oydan so'ng moliyaviy ko'rsatkichlar yaxshilanmadi, chunki uzoq muddatli reja ishlab chiqilmagan edi.

Topshiriq: Taktika va strategiya o'rtasidagi farqni tushuntiring. "Fresh Market" qilgan xatoni aniqlang — kompaniya taktik yoki strategik xarakat qildimi? To'g'ri yondashuv qanday bo'lishi kerak edi?

### **Muammoli masala: Strategik boshqaruvning asosiy bosqichlari**

Vaziyat: "Uzbek Textile" korxonasi eksportni kengaytirishni rejalashtirmoqda. Biroq kompaniyada aniq reja yo'q: bozor tahlil qilinmagan, maqsadlar belgilanmagan, bajarilishini nazorat qilish tizimi yo'q.

Topshiriq: Strategik boshqaruvning asosiy bosqichlarini sanab bering va har birini "Uzbek Textile" misolida izohlang. Kompaniya qaysi bosqichlardan boshlashi kerakligini ko'rsating.

### **Muammoli masala: Strategik maqsad nima?**

Vaziyat: "Najot Ta'lim" o'quv markazi 3 yil ichida O'zbekistonning barcha viloyatlarida filial ochishni istaydi. Rahbarlik "kengayamiz" deb aytadi, ammo aniq ko'rsatkichlar, muddatlar va mas'ul shaxslar belgilanmagan.

Topshiriq: Strategik maqsad nima ekanligini tushuntiring. SMART tamoyili asosida "Najot Ta'lim" uchun aniq strategik maqsadlar ishlab chiqing va ularning ahamiyatini izohlang.

### **Muammoli masala: Strategik fikrlash**

Vaziyat: "Agrobank" bankining yangi rahbari lavozimga tayinlandi. U kundalik operatsion masalalarga — hujjatlar, mijozlar shikoyatlari, xodimlar janjallariga shunchalik ko'p vaqt sarflaydiki, bankning kelajak yo'nalishini o'ylashga vaqt qolmayapti.

Topshiriq: Strategik fikrlash nima ekanligini ta'riflang. Rahbarning xatosini aniqlang va u strategik fikrlashni kundalik boshqaruv bilan qanday uyg'unlashtirishi mumkinligini tavsiya qiling.

### **Muammoli masala: Rejalashtirilgan strategiya**

Vaziyat: "Uzenergo" energetika kompaniyasi 5 yillik rivojlanish rejasini ishlab chiqdi. Rejada investitsiyalar hajmi, yangi quvvatlar ishga tushirish muddatlari va kadrlar tayyorlash aniq belgilangan. Ammo yil o'tib, bozor vaziyati o'zgardi va reja dolzarbligini yo'qota boshladi.

Topshiriq: Rejalashtirilgan strategiya nima ekanligini izohlang. Uning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsating. "Uzenergo" holatida

rejalashtirilgan strategiyani moslashuvchan qilish uchun nimalar qilish kerak?

### **Muammoli masala: Tadbirkorlik strategiyasi**

Vaziyat: Yosh tadbirkor Alisher yangi elektron tijorat platformasini ("O'zbek Bozor") ochdi. U bozorni to'liq o'rganmasdan, o'z intuitsiyasi va tajribasiga suyanib qarorlar qabul qilmoqda. Platforma tez o'smoqda, lekin tizimli boshqaruv yo'qligi muammolar tug'dirmoqda.

Topshiriq: Tadbirkorlik strategiyasini ta'riflang. Bu strategiyaning "O'zbek Bozor" uchun qanday ijobiy va salbiy tomonlari borligini tahlil qiling va kompaniyani rivojlantirish uchun tavsiyalar bering.

### **Muammoli masala: Konsensus strategiyasi**

Vaziyat: "Qurilish Invest" qurilish kompaniyasida rahbariyat yangi loyiha — ko'p qavatli turar-joy majmuasi qurish to'g'risida qaror qabul qilmoqda. Moliya bo'limi xavfni kamaytirishni, marketing bo'limi esa tezroq ishga tushishni talab qilmoqda. Har ikki tomonning qarashlari asosli.

Topshiriq: Konsensus strategiyasi nima ekanligini tushuntiring. "Qurilish Invest" kompaniyasida konsensusga erishish uchun qanday jarayon olib borilishi kerak? Bu strategiyaning afzalliklarini asoslang.

### **Muammoli masala: Korporativ rejalashtirishni rivojlantirishning to'rt bosqichi**

Vaziyat: "UzAuto Motors" avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniya dastlab faqat ichki bozorga mo'ljallangan edi. Keyinchalik MDH bozorlariga chiqdi, undan so'ng global standartlarga mos ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Hozir esa strategik rejalashtirishni yangi bosqichga olib chiqishni mo'ljallamoqda.

Topshiriq: Korporativ rejalashtirishni rivojlantirishning to'rt bosqichini sanab bering va izohlang. "UzAuto Motors" tarixini ushbu to'rt bosqich bilan bog'lang va kompaniya hozir qaysi bosqichda ekanligini aniqlang.

### **Muammoli masala: Korxonada bozor ulushi pasayishi**

Vaziyat: "Artel" kabi maishiy texnika ishlab chiqaruvchi korxonada oxirgi 2 yilda bozor ulushini yo'qotmoqda. Raqobat kuchaygan, ayniqsa Xitoy mahsulotlari arzon narxda kirib kelgan. Sotuvlar 15% ga tushib ketgan.

Topshiriq: Strategik boshqaruv bosqichlari asosida muammoni tahlil qiling va strategiya (Tashqi va ichki muhit tahlili (SWOT), strategik maqsadlarni belgilash, strategiya ishlab chiqish, ) ishlab chiqing.

### **Muammoli masala: Yangi startup kompaniyasi**

Vaziyat: IT sohasida yangi startup - onlayn ta'lim platformasi ishga tushirildi. Lekin foydalanuvchilar soni kutilgandan kam (reja: 10 000, amalda: 3 000).

Topshiriq: Strategik boshqaruv bosqichlari asosida rivojlanish strategiyasini (muhit tahlili, maqsad qo'yish, strategiya tanlash, amalga oshirish, nazorat) taklif eting.

**Muammoli masala: Ishlab chiqarish korxonasida samaradorlik pasayishi**

Vaziyat: Yirik to'qimachilik korxonasida ishlab chiqarish hajmi pasaygan. Sabab sifatida rahbariyat faqat ishchilar malakasini past deb baholamoqda. Lekin amalda ta'minot zanjirida uzilishlar, eski uskunalar va logistika muammolari ham mavjud.

Topshiriq: Tizimli yondashuv asosida muammoni tahlil qiling va kompleks yechim taklif eting.

**Muammoli masala: Universitetda ta'lim sifati muammosi**

Vaziyat: Universitetda talabalar bilim darajasi pasaymoqda. Rahbariyat buni faqat o'qituvchilar sifati bilan bog'lamoqda. Lekin talabalar motivatsiyasi, o'quv dasturlari va infratuzilma ham ta'sir qilmoqda.

Topshiriq: Tizimli yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish strategiyasini ishlab chiqing.

**Muammoli masala: Bozorda keskin o'zgarish (COVID-19 holati)**

Vaziyat: Turizm kompaniyasi pandemiyagacha faol rivojlanib kelgan. Lekin COVID-19 tufayli xalqaro sayohatlar to'xtab qoldi va daromad 80% ga qisqardi.

Topshiriq: Situatsion yondashuv asosida kompaniyaning strategiyasini qayta ko'rib chiqing.

**Muammoli masala: IT kompaniyada kadrlar muammosi**

Vaziyat: IT kompaniyada yuqori malakali dasturchilar ishdan ketmoqda. Rahbariyat barcha xodimlarga bir xil boshqaruv uslubini qo'llamoqda (qattiq nazorat va standart ish vaqti).

Topshiriq: Situatsion yondashuv asosida kadrlar boshqaruvini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqing.

**Muammoli masala: Ishlab chiqarish sexida tartibsizlik**

Vaziyat: Mebel ishlab chiqarish sexida ish jarayoni sekinlashgan. Asboblari turli joylarda sochilib yotgan, ishchilar kerakli jihozni topish uchun ko'p vaqt sarflamoqda. Brak mahsulotlar soni ham oshib ketgan.

Topshiriq: 5S modeli asosida ish joyini optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqing.

**Muammoli masala: Ofisda ish samaradorligining pastligi**

Vaziyat: Kompaniya ofisida xodimlar hujjatlarni topishda qiynalmoqda. Kompyuterlarda fayllar tartibsiz saqlangan, ish joylari ham tozalikka rioya qilinmagan. Bu esa vaqt yo'qotishga olib kelmoqda.

Topshiriq: 5S modeli asosida ofis muhitini yaxshilash strategiyasini ishlab chiqing.

**Muammoli masala: Ortiqcha zaxiralar va chiqindilar muammosi**

